

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARNING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025
Accepted: 1 December 2025
Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

DESCRIPTION OF SPOKEN COMMUNICATION

Rustamov Dilshodbek

DSc of Philological sciences, Professor

Andijan State Institute of Foreign Languages

E-mail: dilshodbek.rustamov@mail.ru

Abstract. Language provides communication between those who enter into communication, since both the sender and the receiver understand each other through language. The sender (addressee) and the receiver (addressee) use the same language in the process of communication, otherwise the perceptual aspect of communication will not be realized. The specific feature of the use of language in a person's life is that it is not only the most important tool of communication, but also a means of understanding and thinking. Interpersonal communication is the main mechanism in the formation of a person as a person.

Keywords: speech, phrase, addressee, addressee, family, communication.

NUTQIY MULOQOT TAVSIFI

Rustamov Dilshodbek

f.f.d. (DSc), professor

Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya. Til muomalaga kirishuvchilar o'rtasidagi kommunikatsiyani ta'min- laydi, chunki axborot beruvchi ham, qabul qiluvchi ham bir-birini til orqali tushunadi. Axborot beruvchi (adresant) va uni qabul qiluvchi (adresat) muloqot jarayonida bir xil tildan foydalanadi, aks holda muloqotning pertseptiv jihati amalga oshmaydi. Insonning hayotiy faoliyati davomida tildan foydalanishining o'ziga xos xususiyati eng muhim muloqot-aralashuv quroli bo'lishi bilan birga anglash, fikrlash vositasi hamdir. Shaxslararo muloqot insonning shaxs sifatida shakllanishida asosiy mexanizm hisoblanadi.

Kalit so'zlar: nutq, ibora, adresant, adresat, oila, muloqot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N57>

Bu jarayon go'dakning oiladagi yaqinlari bilan o'zaro muloqotidan boshlanib, to rasmiy doiradagi shaxslarning Xalqaro muloqot shakllaridagi ishtirokigacha bo'lgan turli-tuman daraja va toifadagi nutqiy faoliyatni o'z ichiga oladi. Nutqiy muloqotning asosiy maqsadi til vositasida turli xil ma'lumotlarni o'zaro almashishdir. Til muloqot vositasi ekanligini doimiy ravishda ta'kidlagan holda, nima uchun nutqiy muloqot birikmasini tanlaymiz? Masalaning mohiyatini yoritish uchun dastlab til va nutq dixotomiyasini anglab olish talab etiladi. Ilmiy matnlarda til va nutq hodisalarini farqlash hamda tadqiqot obyekti sifatida belgilash g'oyasi dastlab V.Gumboldt tomonidan ilgari surilganligi e'tirof etiladi. F.de Sossyur lisoniy faoliyat (Language) ning individuallik va sotsiallik belgilarini o'zida mujassam etgan butunlik ekanini ta'kidlaydi va lisoniy faoliyat doirasida ikki asosiy tushunchani – til (langua) va nutq (porole)ni ajratdi. Garchi til-nutq dixotomiyasi F.de Sossyurgacha V.Gumboldt, yosh grammatikachilar maktabi va Boduen de Kurtene tomonidan bayon qilingan bo'lsa ham, lekin F.de Sossyur uni lingvistik

sistemaning markaziga aylantirdi. A.Nurmonov «til va nutq» dixotomiyasining shakllanish jarayonini tahlil qilar ekan, Alisher Navoiy tilshunos olim sifatida Vilʼgelʼm Gumbolʼdt va F.de Sossyurdan ancha oldin til va nutq hodisalarini bir-biridan farqlaganini taʼkidlaydi.[1]

“Va xayolimgʻa mundoq kelurkim, turk ulusi fasihlarigʻa ulugʻ haq sobit qildimki, oʻz alfoz va iboratlari haqiqati va oʻz til va lugʻatlari kayfiyatidin voqif boʻldilar va forsiygoʻylarning iborat va alfoz bobida taʼn qilur sarzanishidin qutuldilar. (Tabdili: Xayolimga shunday keladiki, turk xalqining soʻz ustalari oldida ulugʻ vazifani bajardim, buning blan ular oʻz soʻzlari iboratlari haqiqatidan va oʻz til va lugʻatlari kayfiyatidan xabardor boʻldilar va forsiyoʻylarning nutq va soʻz bobida qilib kelgan taʼna va sarzanishlaridan qutuldilar.)”[2]

Darhaqiqat, bu oʻrinda Alisher Navoiy til va lugʻat umumiylikni ifodalovchi mohiyat, nutq va soʻz esa xususiylikni ifodalovchi tajalli ekanligiga ishora qilar ekan, har bir ijodkor til imkoniyatlari va lugʻat boyligidan foydalanib, soʻzni istagancha jilolantira olishi, nutqiy ifodalar yaratishi mumkinligini taʼkidlaydi. Sh.Shahobitdinova F. de Sossyur, uning taʼlimoti bilan aloqador langue va parole dixotomiyasidagi langueni lison tarzida qoʻllab, muammoni umumiylik va xususiylik dialektikasi asosida lison – nutq tarzida tavsiflaydi. Lison tilning umumiyliklar, nutq esa xususiyliklar tizimi ekan, «Umumiylik va xususiylik dialektikasining tildagi tajallisi nima?» degan savolga ixcham va loʻnda qilib: «Tilda lison va nutqni farqlash», – deb javob berish mumkin. Xususiyliklarning belgisi ularning zohiriyligi, yaʼni bevosita kuzatishda berilganligidir. Til hodisalaridan biz bevosita koʻra oladigan, eshita oladiganlari xususiyliklardir.[3]

M.Ernazarova ham masalaga shu nuqtai nazardan yondashib, «Til – lison va nutq yaxlitligidagi murakkab butunlik ekanligi, lison nutqda meʼyor asosida voqelanishi, nutq uchun asos boʻlib xizmat qilishini zamonaviy ilmiy-nazariy qarashlar va metodlarga asoslangan holda tadqiq etish dolzarb muammolardan biri» ekanligini taʼkidlaydi.[4]

Tilning substansial tizimi nutqda faollashadi va bu odamlar oʻrtasida muloqotni keltirib chiqaradi. Sh.Safarov ana shu jarayonning mohiyatini yoritib berishni koʻzda tutadi: «Til potensial hodisa boʻlib, kishilar ongida bolalikdan oʻzlashtirilgan gapirish qobiliyati va nutq orqali ifodilangan fikrni tushunish vositasi sifatida mavjud boʻladi. Nutq esa mavjud imkoniyatni voqelantirish va soʻzlashuv qobiliyatini aniq muhitda amalga oshirish jarayonidir. ...(nutq) yordamida odam oʻz fikrini, hissiyotlarini, kayfiyatini, istaklarini ifodalaydi. Nutq individual hodisa boʻlsa-da, aksariyat hollarda biz bir-birimizni tushunamiz. Tushunish soʻzlashish faoliyatida ayrim oʻziga xos va umumiy xususiyatlarning mavjudligi tufayli yuz beradi. Bunday xususiyatlar muayyan til jamoasi ishlatadigan birliklar (fonemalar, morfemalar, soʻzlar, gaplar) va ulardan foydalanish qoidalarining umumiylikidadir. Umumiy birliklar va qoidalar til tizimiga mansub boʻlib, ularning individual nutqda ishlatilishi nutqning strukturaviy asosini tashkil qiladi. Aynan shu asosda nutqning muloqot jarayonidagi vazifasi amalga oshiriladi».[5]

Suyun Karimov masalaga uslubshunoslik nuqtai nazaridan yondashib, «Oʻzbek tilining ijtimoiy vazifasi bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan funksional uslubshunoslik til va nutq dialektikasining bevosita mahsuli sifatida yuzaga kelgan boʻlib, oʻzbek tili materialining oʻzbek muloqot shaklining turli koʻrinishlarida namoyon boʻlish xususiyatlarini tadqiq etish bilan shugʻullanishi» ni eʼtirof etadi.[6]

M.Hakimov pragmatik maʼnolarning yuzaga chiqishida til va nutq dixotomiyasining oʻzaro muloqotdorligiga eʼtibor qaratadi: «Tildan foydalanuvchi har bir shaxsning nutqida

fonetik sathdan to sintaktik sathga qadar til va nutq birliklarining qo'llanishida ularning o'ziga xos vazifalari mavjud bo'ladi. So'zlovchi nutqiga oid ifodaning qaysidir elementlarida uslubiy belgi va ma'lum vositalar muallifning ichki ruhiy olami yoki sotsial mavqe ko'rinishlari haqida ma'lumot berish uchun xizmat qiladi».[7]

«Nutq jarayoni, insonning nutqiy faoliyati uning rang-barang (chunonchi: ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy va h.k.) ijtimoiy va tabiiy faoliyati bo'lganligi sababli, pragmatikada nutqiy faoliyat insoniy faoliyatning qolgan o'nlab qirralari bilan bog'liqlikda o'rganiladi. Shuning uchun struktur (sistem) tilshunoslik til tizimini, til sistemasini o'rgansa, pragmatika diskurs (muloqot, o'zaro-fikr almashuv, kommunikatsiya, muloqot-aralashuv, so'zlashuv) tizimini o'rganadi».[8]

Bu borada G.Toirova «O'zbek nutqiy muloqotida sistemaviylik va informativlik» mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida nutqiy muloqotni zamonaviy tilshunoslik nazariyalari talqinida murakkab situativ-pragmatik sistema (SPS) sifatida tadqiq qilar ekan, uning tarkibi ichki va tashqi omillardan iboratligi, SPSning markazini verbal, ilk qurshovini noverbal (kinetik va fonatsion) vositalar, ilk qurshovning qurshovlarini esa tashqi omillar tashkil qilishi xususidagi izlanishlarini bayon qiladi.[9]

T.A.Shexurdina insonning muloqot ehtiyoji biologik tabiatga ega ekanligini ta'kidlaydi: «muloqot inson ixtirosi emas, unga bo'lgan ehtiyoj biologik xususiyatga ega. U inson hayotida shunday muhim rol o'ynaydiki, amalda yetakchilik maqomini oldi va psixologlar uni o'zini o'zi saqlab qolish zarurati bilan tenglashtiradilar».[10]

Nutqiy faoliyat inson faoliyati turlaridan biri sifatida xarakterlanadi. Nutqiy muloqot jarayon sifatida quyidagi tushunchalarni o'z ichiga oladi: til nutqiy muloqotning asosiy vositasi ekanligi; til (o'zbek tili) funksional uslublarining muloqotdagi o'ziga xos jihatlari; gapirish va eshitish, yozish va o'qish nutqiy faoliyat turlarining asosiy tamoyillari, nutqning mantiqiy va kompozitsion qurilishi; nutq texnikasi; nutq taktikasi; nutqiy me'yor; og'zaki va yozma nutq mahoratini oshirish; nutqning verbal va noverbal vositalari va hokazo.

Nimanidir bilish uchun savol berish zarurati, ish jarayonida kim bilandir axborot almashish, oila a'zolari yoki do'stlar, hamkasblar bilan suhbatlashish, qilingan ish haqida ma'lumot berish, bolani ovutish, do'konda xarid qilish kabi turli-tuman sabablar nutqiy faoliyatning boshlang'ich nuqtasi, ya'ni nutqiy vaziyatni yuzaga keltiruvchi holatlar nutqiy faoliyatni amalga oshirishga turtki beradi.

Adresant tomonidan harakatlantirilgan nutqiy faoliyat natijasi uning idrok etilishi va adresatning unga bo'lgan munosabati bilan baholanadi. Fikrlar almashinuvi jarayoni dialog yoki polilogda amalga oshiriladi. Nutqiy muloqot yuzaga kelishi uchun, asosan, 3 xil komponent talab qilinadi:

1. kommunikantlar;
2. muloqot obyekti;
3. muloqot vositasi (verbal va noverbal).[11]

O.Ya.Goyxman nutqiy muloqot quyidagi bosqichlarga bo'linishini ta'kidlaydi: Nutqiy faoliyat 1) fikrni bayon etishga tayyorlanish: sabab, ehtiyoj, maqsadni anglagan holda ilgari tajribaga asoslanib va nutqiy vaziyatni hisobga olib nutqiy ifoda natijalari ehtimolini tasavvur qilish. Nutqiy qobiliyati, ko'nikmalari rivojlangan odamning ong ostida bular tezkor shakllanadi;

2) ifodaning tuzilishi: soʻzlarni tanlash, ularni kerakli ketma-ketlikda joylashtirish izchil grammatik shakllantirish – bularning barchasi ichki planda sodir boʻladi. Soʻzlarni tanlash mexanizmi va grammatik shakllantirish jarayoni inson uchun mavhum boʻlganligi sababli nutqiy faoliyatning bu bosqichi kam oʻrganilgan boʻlib, turli taxminiy fikrlar mavjud;

3) tashqi nutqqa oʻtish: ifodaning ovozi yoki grafik shakli. Bu eng masʼuliyatli bosqich, chunki u ifodaning ijobiy yoki salbiy natijasini belgilaydi. Agar biror sababga koʻra ichki nutqdan tashqi nutqqa oʻtish jarayonida nuqsonli holat boʻlsa, tugallanmagan, noqulay, tushunish qiyin nutqqa aylanadi.

Nutqiy faoliyat natijasi uning idrok etilishi va adresat munosabati bilan baholanadi. Nutqni idrok etish (tinglash yoki oʻqish jarayoni) quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga oladi:

- 1) akustik yoki grafik koddan ichki nutq kodiga oʻtish;
- 2) sintaktik qurilmalar, grammatik shakllarni dekodlash;
- 3) ifodaning umumiy mazmunini anglash;
- 4) ifodaning sabab va maqsadini anglash;
- 5) olingan maʼlumotni baholash (ifoda mazmuni, gʻoyasi, soʻzlovchi pozitsiyasi va boshqalar);
- 6) shakl va til vositalarini tanlashni tushunish.

Anglash (idrok etish jarayonining ajralmas qismi sifatida) ikki xil darajani oʻz ichiga oladi: lisoniy va mazmuniy. Birinchisi ikkinchisiz mumkin, ikkinchisi esa birinchisiz mumkin yemas. Ifoda mazmunini har doim ham toʻliq tushunishga erishilavermaydi. Qabul qiluvchining soʻzlovchi nutqini faol tushunish istagi bilangina samarali idrok etish mumkin. Qayta muloqot (aytilgan fikrga nisbatan munosabat bildirish) — nutqiy faoliyat natijasini baholashga imkon beradigan muhim jihati. Nisbatan toʻliq fikr dialogda yuzaga chiqadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Nurmonov A. Oʻzbek tilshunosligi tarixi. –T.: Oʻzbekiston, 2002. – B.80.
2. Alisher Navoiy. Muhokamatul-lugʻatayn. – B. 24//
http://ferlibrary.uz/f/alisher_navoiy_muhokamatul_lugatayn
3. Shahobitdinova Sh.X. Oʻzbek tili morfologiyasi. – Andijon: Andijon nashriyot matbaa, 2012. – B. 24.
4. Ernazarova M. Grammatik maʼno lisoniy va pragmatik omillar yaxlitligida. Filol. fanl. dokt (DSs). ... diss. avtoref. – Samarqand, 2018. – B.5.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – T.: 2008. – B.47.
6. Karimov S. Oʻzbek tili funktsioial stilistikasi. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 2010. – B.5.
7. Hakimov M. Oʻzbek pragmalingvistikasi asoslari. –T.: Akademnashr, 2013. – B. 45.
8. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – T.: 2008. – B.48.
9. Toirova G.I. Oʻzbek nutqiy muloqotida sistemaviylik va informativlik. Filol. fanlari boʻyicha falsafa doktori (Phd) diss. avtoref. – T., 2017.
10. Shexurdina T.A. Rechevaya kommunikatsiya: Konspekt lektsiy dlya studentov gumanitarnykh spetsialnostey. – M.: RUT (MIIT), 2018. – S. 4.
11. Goyxman O.Ya., Nadeina T.M. Rechevaya kommunikatsiya: Uchebnik dlya vuzov / Pod red. Goyxmana O.Ya. – M.: INFRA-M, 2001. – B.6.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).